

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SPORT AKADEMIYASI HUZURIDAGI
JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

NURMATOV UZOQ XUSHMATOVICH

**PARTISIPATIV BOSHQARUV USLUBINING O‘QITUVCHILAR
FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOY-
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Psychological Sciences**

Nurmatov Uzoq Xushmatovich

Partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta'sir
etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 3

Нурматов Узок Хушматович

Социально-психологические особенности влияния партисипативного стиля
управления на эффективность деятельности учителей 25

Nurmatov Uzoq Khushmatovich

Socio-psychological characteristics of the influence of a participatory management
style on teachers' work efficiency 49

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SPORT AKADEMIYASI HUZURIDAGI
JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

NURMATOV UZOQ XUSHMATOVICH

**PARTISIPATIV BOSHQARUV USLUBINING O‘QITUVCHILAR
FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOY-
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/P298 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hayitov Oybek Eshboyevich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Umarali Do‘stqobilov
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor,

Shonazarov Asror Maxmaisoyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___»_____ kuni soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; E-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___»_____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___»_____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimining jadal rivojlanishi sharoitida ta'lim muassasalarini boshqarishda demokratik tamoyillarga asoslangan partisipativ yondashuv uslubi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajribadan ko'rinadiki, Ruminiya davlat tashkilotlarida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, partisipativ boshqaruv modeli xodimlarning kasbiy samaradorligini oshirish, tashkilotga nisbatan daxldorlik tuyg'usini mustahkamlash hamda ijobiy mehnat muhitini shakllantirishda samarali ta'sir usuli ekanligi tasdiqlangan. Bu borada «Grapini va hamkorlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ishtirok etgan rahbar va xodimlarning 85,7%i partisipativ boshqaruvning ta'sirini ijobiy baholagan»¹ligi ahamiyatlidir. Mazkur ijobiy tendensiyalardan kelib chiqib, O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jamoalar faoliyati samaradorligini ta'minlashda partisipativ boshqaruvni qo'llashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida umumta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan boshqaruv uslublari va strategiyalarini ilmiy tahlil qilish asosida samaradorlikni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish muammolariga asosiy e'tibor qaratilib, ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada pedagogik jamoalar faoliyati samaradorligini ta'minlashda, ayniqsa, rahbar va o'qituvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar, jamoaviy qarorlar qabul qilishda faol ishtirok, ishonch va muloqot madaniyati kabi omillarni chuqur ilmiy asosda o'rganish zaruriyati mavjud. Shu sababli, partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini alohida tadqiqot predmeti sifatida ilmiy o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda boshqaruv sohasida qator tub islohotlar amalga oshirilib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish», ... «Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan «soft skills» ko'nikmalariga bag'ishlangan mavzular o'tilishini yo'lga qo'yish»² ustuvor vazifalar etib belgilanganligi mazkur muammo bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish uchun zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son «Pedagogning maqomi to'g'risida», 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida», 2020-yil 20-sentabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida» Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son «Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 11-maydagi PF-134-

¹ <chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://stec.univ-ovidius.ro/html/anale/RO/2022-2/Section%204/15.pdf>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-6811936>

son «2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida», 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida», 2018-yil 5-sentabrdagi PF–5538-son «Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida» Farmonlari, 2021-yil 25-yanvardagi PQ–4963-son «Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida» Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi 264-son «Umumiy o‘rta ta’lim sohasi xodimlari o‘rtasida «Yil o‘qituvchisi» hamda «Kasbiy mahorat yetakchisi» tanlovlarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to’g’risida» qarori hamda ushbu sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz hamda xorijiy tadqiqotchi olimlar tomonidan ta’lim tizimini boshqarishda samaradorlikni oshirish, boshqaruv kadrlarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, ularning faoliyat samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan ilmiy izlanishlar izchillik bilan olib borilmoqda.

O‘zbekiton psixolog olimlaridan Sh.X.Abdullayeva, K.S.Aliyeva, N.Boymurodov, M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, O.E.Hayitov, A.M.Jabborov, X.A.Kadirova, N.T.Kariyeva, V.M.Karimova, I.I.Maxmudov, D.G.Muxamedova, A.S.Nazarov, N.A.Ruziqulov, D.X.Safarov, O.R.Shamiyeva, A.M.Shonazarov, S.X.Ergasheva, E.N.Sattarov va boshqalar o‘z tadqiqotlarida yuqori malakali rahbar kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, bo‘lajak rahbarlarni professional faoliyatga mos holda shakllantirish, tanlash va saralash mezonlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratib, ushbu yo‘nalishda ma’lum darajada olib borilgan. Biroq partisipativ boshqaruv uslubining o‘qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillari psixologiya fani doirasida tadqiqot obyekti sifatida hanuzgacha ilmiy tadqiq etilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan T.A.Azimov, T.Yu.Bazarov, M.R.Bityanova, D.Yu.Varnavskiy, I.P.Volkov, B.M.Genkin, A.L.Juravlyov, T.A.Dudnik, L.I.Yevenko, Yu.A.Yermizina, D.P.Kaydalov, S.A.Kim, N.B.Kostina, L.D.Kudryashova, A.N.Leontev, K.K.Platonov, A.A.Rusalina, N.V.Samoukina, O.V.Sevastyanova, R.X.Shakurov, A.T.Shelestova va boshqalar tomonidan turli tashkilot va ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, rahbarlik uslublarini aniqlash, ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, rahbar kadrlarda tashabbuskorlik, yetakchilik va ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq boshqaruv kompetensiyalari va shaxsiy salohiyatni

shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorijiy tadqiqotchilaridan J.Dewey, P.Drucker, H.Fayol, R.Likert, K.Lewin, A.Maslow, D.Mc.Clelland, E.Mayo, C.R.Rogers kabi olimlar tomonidan rahbarlik va boshqaruvga oid nazariy asoslar, ijtimoiy-emotsional munosabatlar, motivatsiya, yetakchilik va shaxsiy rivojlanish mexanizmlari to'g'risida ilmiy qarashlar shakllantirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining (2024–2025-yy.) hamda A–3–175 raqamli «O'zbekistonda ma'muriy boshqaruv organlari rahbarlarining lavozimga loyiqligini baholash va tavsiya etish texnologiyasini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik asoslari» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2006–2008-yy.).

Tadqiqotning maqsadi partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta'siri xususiyatlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi rahbarlik uslubining o'qituvchilarning kasbiy faoliyat ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash va boshqaruv samaradorligiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash;

partisipativ boshqaruv muhitini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik indikatorlarni aniqlash asosida kollegial boshqaruv modelining kasbiy motivatsiya va pedagogik sheriklikka ta'sirini empirik jihatdan o'rganish;

umumta'lim maktabi rahbarlari va o'qituvchilari o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni konstruktivlik mezonlari asosida baholash hamda bu munosabatlarning kasbiy faoliyatga daxldorlik va qaror qabul qilishdagi ishtiroki bilan bog'liqligini aniqlash;

rahbar va pedagog kadrlardagi kommunikativ hamda tashkilotchilik qobiliyatlarining partisipativ boshqaruv sharoitida o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta'sirini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti etib partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta'siri jarayoni olingan bo'lib, unda Yunusobod tumanidan 12, 86, 246-son umumiy o'rta ta'lim maktablari (jami Toshkent shahridan – 125 nafar); Nurota tumanidan 9, 15-son umumiy o'rta ta'lim maktablari, Xatirchi tumanidan 11, 62-son umumiy o'rta ta'lim maktablari, Navoiy shahridan 8, 12-son umumiy o'rta ta'lim maktablari (jami Navoiy viloyatidan – 114 nafar); Chiroqchi tumanidan 26, 105-son umumiy o'rta ta'lim maktablari, G'uzor tumanidan 63, 76-son umumiy o'rta ta'lim maktablari, Kasbi tumanidan 24, 42-son umumiy o'rta ta'lim maktablari, Mirishkor tumanidan 23, 27-son umumiy o'rta ta'lim maktablari, Qamashi tumanidan 8, 75-son umumiy o'rta ta'lim maktablari, Shahrisabz tumanidan 69, 80-son umumiy o'rta ta'lim maktablari, Yakkabog'tumanidan 6, 93-son umumiy o'rta ta'lim maktablari (jami Qashqadaryo viloyatidan 137 nafar), umumiy o'rta ta'lim maktablarning direktorlari va direktor o'rinbosarlari, metod birlashmalar

rahbarlari va fan o'qituvchilaridan iborat jami 376 nafar respondentlar ishtirok etdi.

Tadqiqot predmetini umumta'lim muassasalarida partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar faoliyatiga ijtimoiy-psixologik ta'sirini belgilovchi qonuniyatlar va mexanizmlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda hammualliflikdagi «Partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar va metod birlashmalar faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholash» (O.E.Hayitov, U.X.Nurmatov) so'rovnomasi, I.P.Zaxarov, A.L.Juravlyovlarning «Mehnat jamoasidagi boshqarish uslubini aniqlash» metodikasi, N.P.Fetiskin, V.V.Kozlov, G.M.Manuylovlarining «Rahbarning boshqaruv salohiyatini ekspress-baholash» va «Jamoada ishchanlik, ijodiy va axloqiy iqlimni aniqlash» metodikalari, A.F.Fidlarning «Jamoadagi psixologik muhitni baholash» metodikasi, V.V.Sinyavskiy, V.A.Fedoroshinlarning «Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash (KOS-2)» metodikalaridan foydalanildi. Olingan empirik ma'lumotlarning validligi va ishonchliligi matematik-statistika metodlaridan Mann-Uitni U-mezoni, χ^2 -mezoni, Kruskal-Uollis H-mezoni, Spirmen mezonlari orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-psixologik omillar differensial tahliliga ko'ra, «Partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar va metod birlashmalar faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholash» so'rovnomasi asosida rahbarlik uslubining kollegial, direktiv va popustitel komponentlari o'qituvchilarining kasbiy faollik, tashabbuskorlik, refleksiv yondoshuv va o'zini o'zi baholash kabi indikatorlari bilan o'zaro korrelyasion bog'liqlikda tahlil qilinib, boshqaruv samaradorligining partisipativ muhitda optimal darajada shakillanishi ilmiy asoslangan;

mehnat jamoasida partisipativ boshqaruv uslubining shakillanishi «qaror qabul qilishda pedagog ishtirokining real darajasi», «rahbar-o'qituvchi o'rtasidagi muloqot formasi», «menejrlarning tanqidga nisbatan ochiqqligi», «tashabbuslarni rag'batlantirish mexanizmi», «boshqaruvda ishonch va mas'uliyat taqsimoti» kabi indikatorlar differensial ifodasiga ko'ra, kollegial-komponentli boshqaruv modeli o'qituvchilarda kasbiy motivatsiya, tashabbuskorlik va professional sheriklikni rag'batlantiruvchi muhim psixologik omil sifatida dalillangan;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagogik jamoalarida partisipativ boshqaruv uslubining samaradorligini aniqlovchi «boshqaruv salohiyati», «kasbiy motivatsiya», «emotsional faollik», «ijtimoiy ishonch», «jamoaviylik» va «hamkorlik darajasi» indikatorlari asosida direktor (direktor o'rinbosarlari)-fan o'qituvchilari o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar konstruktivlik mezonlari orqali tahlil qilinib, kasbiy faoliyatga daxldorlik va qarorlar qabul qilishda ishtirok darajasi o'rtasidagi funksional uzviylik empirik jihatdan asoslangan;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarida partisipativ boshqaruv kompetensiyasining shakillanishi KOS-2 metodikasi asosida aniqlangan «kommunikativ» va «tashkilotchilik» qobiliyatlar darajalarining real boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari bilan uzviylikda namoyon bo'lishi, shuningdek, bu resurslarning differensial tahlili orqali pedagogik jamoalarda funksional tenglik,

tashabbusni qo'llab-quvvatlash va institusional ishonch muhitini ta'minlash omili ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar va metod birlashmalar faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholash» mualliflik so'rovnomasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan;

«Umumta'lim muassasalarida partisipativ boshqaruvni rivojlantirish modeli» ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'zida jamlagan manzilli tavsiyalar ishlab chiqilib, aprobarsiya qilingan.

Tadqiqotda olingan natijalarning ishonchliligi partisipativ boshqaruvning ijtimoiy-psixologik «muhit harorati»ni aniqlashga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg'unligi, umumta'lim muassasalari boshqaruv tizimi va rahbar kadrlar faoliyatiga oid respublika va xorijiy olimlar qarashlarining asos sifatida tanlanishi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi bir-birini to'ldiruvchi diagnostik metodlarning kompleks qo'llanilishi, empirik tahlilning son va sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining vakillik darajasi va olingan natijalarning matematik-statistik metodlar asosida qayta ishlanib, tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy** ahamiyati mazkur tadqiqotda partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlanganligi, funksional ko'rinishlari va differensial baholash indikatorlari ishlab chiqilganligi, Fidler, KOS-2 metodikalari hamda IP so'rovnomaga tayangan holda o'qituvchilarning kasbiy faolligi, tashabbuskorligi va hamkorlik kompetensiyalari bilan partisipativ boshqaruv muhitining bog'liqligi, taklif etilgan baholash modeli, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar tizimi hamda samaradorlik indikatorlari «Boshqaruv psixologiyasi», «Ta'lim menejmenti», «Ijtimoiy psixologiya» fanlari rivojiga nazariy hissa bo'lib qo'shilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy** ahamiyati shundaki, olingan emperik ma'lumotlar va ishlab chiqilgan model Boshqaruv samaradorligi agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi inson resurslarini boshqarish bo'limlarida kadrlar tanlovi va zaxira kadrlar bazasini shakillantirishda qo'llanishi, umumiy o'rta ta'lim maktablari metodbirlashmalari faoliyatini tizimlashtirish, maktab direktori va o'rinbosarlari salohiyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar faoliyatining samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi asosida:

ijtimoiy-psixologik omillar differinsial tahliliga ko'ra, «Partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar va metod birlashmalar faoliyati samaradorligiga ta'sirini

baholash» so'rovnomasi asosida rahbarlik uslubining kollegial, direktiv va popustitel komponentlari o'qituvchilarining kasbiy faollik, tashabbuskorlik, refleksiv yondoshuv va o'zini o'zi baholash kabi indikatorlari bilan o'zaro korrelyasion bog'liqlikda tahlil qilinib, boshqaruv samaradorligining partisipativ muhitda optimal darajada shakllanishi ilmiy asoslangan xulosalar O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-337-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan. (O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-337-a-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi rahbarlik uslublari o'qituvchilarning kasbiy faoliyat ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlangan hamda boshqaruv samaradorligiga ta'sirini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilgan;

mehnat jamoasida partisipativ boshqaruv uslubining shakllanishi «qaror qabul qilishda pedagog ishtirokining real darajasi», «rahbar-o'qituvchi o'rtasidagi muloqot formasi», «menejrlarning tanqidga nisbatan ochiqligi», «tashabbuslarni rag'batlantirish mexanizmi», «boshqaruvda ishonch va mas'uliyat taqsimoti» kabi indikatorlar differensial ifodasiga ko'ra, kollegial-komponentli boshqaruv modeli o'qituvchilarda kasbiy motivatsiya, tashabbuskorlik va professional sheriklikni rag'batlantiruvchi muhim psixologik omil sifatida dalillangan takliflar O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-337-son buyrug'i bilan «Boshqaruv psixologiyasi» moduliga kiritilgan. (O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-337-a-son ma'lumotnomasi). Natijada, partisipativ boshqaruv muhitini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik indikatorlar aniqlangan hamda ular asosida kollegial boshqaruv modelining kasbiy motivatsiya va pedagogik sheriklikka ta'sirini empirik jihatdan o'rganish imkoniyati kengaytirilgan;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagogik jamoalarida partisipativ boshqaruv uslubining samaradorligini aniqlovchi «boshqaruv salohiyati», «kasbiy motivatsiya», «emotsional faollik», «ijtimoiy ishonch», «jamoaviylik» va «hamkorlik darajasi» indikatorlari asosida direktor (direktor o'rinbosarlari)-fan o'qituvchilari o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar konstruktivlik mezonlari orqali tahlil qilinib, kasbiy faoliyatga daxldorlik va qarorlar qabul qilishda ishtirok darajasi o'rtasidagi funksional uzviylik empirik jihatdan asoslangan takliflar O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-337-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan. (O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-337-a-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumta'lim maktabi rahbarlari va o'qituvchilari o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar konstruktivlik mezonlari asosida baholangan hamda bu ularning kasbiy faoliyatga daxldorligi va qaror qabul qilishdagi ishtiroki bilan bog'liqligini tekshirish imkoniyati yaratilgan;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarida partisipativ

boshqaruv kompetensiyasining shakillanishi KOS-2 metodikasi asosida aniqlangan «kommunikativ» va «tashkilotchilik» qobiliyatlar darajalarining real boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari bilan uzviylikda namoyon bo'lishi, shuningdek, bu resurslarning defferensial tahlili orqali pedagogik jamoalarda funksional tenglik, tashabbusni qo'llab-quvvatlash va institusional ishonch muhitini ta'minlash omili ekanligi dalillangan ma'lumotlar O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-337-son buyrug'i bilan «Boshqaruv psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-337-a-son ma'lumotnomasi). Natijada, rahbar va pedagog kadrlardagi kommunikativ hamda tashkilotchilik qobiliyatlarining partisipativ boshqaruv sharoitida o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta'sirini aniqlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsion tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 3 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatyasi va e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Pedagogik jamoani boshqarishning ijtimoiy-psixologik asoslari**» nomli birinchi bobi rahbarlik faoliyatining psixologik-madaniy ildizlari, nazariy-metodologik asoslari va zamonaviy amaliy yondashuvlarini qamrab oladi. Bobning dastlabki qismida Sharq mutafakkirlarining boshqaruv, yetakchilik va axloqiy fazilatlariga oid qarashlari ijtimoiy-psixologik kontekstda tahlil etiladi. Keyingi tahliliy qismda rahbarlik uslublarning ilmiy-nazariy asoslari, ularning evolyutsiyasi, klassik va zamonaviy modellar asosida tavsifi, samaradorlik mezonlari va psixologik determinantlari yoritilgan. Yakuniy konseptual qismda esa pedagogik

jamoaning ijtimoiy-psixologik tuzilmasi, rivojlanish bosqichlari, boshqaruv uslublari bilan o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish omillari tizimli tarzda asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning «**Partisipativ boshqaruv uslubining o‘qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta’siri**» nomli ikkinchi bobida mazkur boshqaruv uslubining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqot dasturi, uning metodik vositalari, diagnostik ko‘rsatkichlari va baholash mezonlari asoslab berilgan. Tadqiqotda rahbarlik uslubi va o‘qituvchilar faoliyati samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik regional, metodik va psixologik omillar kesimida statistik tahlil qilinib, partisipativ boshqaruvning afzalliklari asoslangan.

Bobning 1-paragrafida partisipativ boshqaruvning o‘qituvchilar faoliyati samaradorligiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan nazariy-metodologik asoslar va tadqiqot yondashuvlari bayon etilgan. Jumladan, rahbarlik uslubining samaradorlik bilan bog‘liqligini tushuntiruvchi K.Levin (avtoritar, demokratik, liberal), D.MakGregor («X» va «Y» nazariyalari) hamda R.Laykert (to‘rt yetakchilik tizimi) konsepsiyalari asosiy metodologik poydevor sifatida tanlangan. Ular rahbar va ijrochi o‘rtasidagi ishonch, qarorlar qabul qilishda ishtirok, kommunikativ muhit va motivatsiya kabi o‘lchovlar orqali partisipativ boshqaruvning afzalliklarini asoslab beradi. Bo‘limda, shuningdek, boshqaruv funksiyalari va tuzilmasiga oid R.X.Shakurov, rahbarlik uslubining shakllanishiga oid A.L.Juravlyov va N.F.Rubaxin, boshqaruv va tashkilotchilik qobiliyatlari borasida K.K.Platonov hamda L.I.Umanskiy, rahbar shaxsining psixologik tuzilmasiga oid L.D.Kudryashova konsepsiyalari yoritilgan. Ular partisipativ rahbarlik uslubining shaxsiy, tashkiliy va kontekstual omillar bilan bog‘liqligini tushuntirishda xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar asosida tadqiqot usullari, baholash mezonlari va diagnostika parametrlari ishlab chiqilgan.

Bobning 2-paragrafida partisipativ boshqaruv uslubining o‘qituvchilar faoliyati samaradorligiga ko‘rsatadigan ijtimoiy-psixologik ta’siri empirik tahlil asosida yoritilgan. Dastlab PISA xalqaro baholash dasturi natijalari asosida O‘zbekiston ta’lim tizimidagi boshqaruv va kommunikativ muhit muammolari tahlil qilingan. Shundan kelib chiqib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan «Partisipativ boshqaruv uslubining o‘qituvchilar va metod birlashmalari faoliyatiga ta’sirini baholovchi so‘rovnomasi» (IPS) asosida Toshkent shahri, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida 376 nafar respondent ishtirokida so‘rov o‘tkazilgan.

Tadqiqotda partisipativ boshqaruvning boshqaruv salohiyati, yetakchilik uslublari, qaror qabul qilish, kognitiv yondashuv va faoliyat samaradorligi kabi komponentlarga ta’siri Mann-Uitni U-mezoni asosida baholangan.

1-jadvalda Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyati umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida partisipativ boshqaruvning o‘qituvchilar faoliyati samaradorligiga ko‘rsatgan ijtimoiy-psixologik ta’siri beshta asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha taqqoslab tahlil qilingan. Mann-Uitni U-mezoni asosida o‘tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko‘ra, har bir ko‘rsatkich bo‘yicha ikki hudud o‘rtasida $p < 0,01$ darajasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlangan.

«Boshqaruv salohiyati va rahbarlik sifati» ko‘rsatkichi bo‘yicha Toshkent shahri

ishtirokchilari o'rtacha 4,16 ball, Qashqadaryo viloyatidagi ishtirokchilar esa 2,35 ball ko'rsatdi, bu natija rahbarlarning professional kompetensiyasi va boshqaruv uslubidagi farqlarni ko'rsatadi. Qaror qabul qilish, yetakchilik uslublari, kognitiv yondashuv Toshkent shahri vakillari ancha yuqori natijalarni qayd etgan.

1-jadval.

O'qituvchilar faoliyati samaradorligiga partisipativ boshqaruv uslubi ta'sirining hududlar kesimidagi natijalari (Mann-Uitni U-mezoniga ko'ra)

T/r	Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
		Toshkent shahri, yashil toifa maktablar (n=125)	Qashqadaryo viloyat, qizil toifa maktablar (n=137)		
I	Boshqaruv salohiyati va rahbarlik sifati	4,16	2,35	16758,5	0,000 **
II	Boshqaruv oriyentatsiyasi va yetakchilik uslublari	4,14	2,28	16768,5	0,000 **
III	Qaror qabul qilish va hujjatlar bilan ishlash	4,12	2,36	16654,5	0,000 **
IV	Kognitiv-faoliyat yondashuvi	4,15	2,38	16800,5	0,000 **
V	Faoliyat samaradorligi va o'zini baholash	4,06	2,36	16612,0	0,000 **

Izoh: ** – $p < 0,01$

Ushbu tafovutlar hududlar kesimida partisipativ boshqaruvning joriy etilish darajasi, direktor (direktor o'rinbosarlari)-o'qituvchi o'rtasidagi muloqot sifati va jamoaviy hamkorlik tamoyillarining amaliyotda qay tarzda ifoda topayotganini ifoda etadi. Demak, «yashil» toifadagi maktablarda joriy qilingan ochiq, ishtirokchi va tenglikka asoslangan boshqaruv modeli o'qituvchilarning kasbiy faolligi va o'zini anglash darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Metod birlashmalar (aniq, tabiiy, amaliy fanlar va boshqalar) kesimidagi farqlar ham statistik jihatdan tahlil etilgan. Natijalar partisipativ boshqaruv uslubi joriy etilgan maktablarda ijobiy psixologik muhit, pedagogik tashabbuskorlik va ta'lim sifati yuqori ekanini ko'rsatgan.

2-jadvalda partisipativ boshqaruvning metod birlashmalar faoliyati samaradorligiga ta'siri beshta asosiy ko'rsatkich asosida taqqoslab o'rganilgan. Natijalarga ko'ra, «Amaliy fanlar» birlashmasi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha eng past umumiy o'rtacha (3,45) ballni qayd etgan. Ayniqsa, «boshqaruv salohiyati» (3,39) va «kognitiv-faoliyat yondashuvi» (3,44) darajalari past bo'lib, pedagoglarda tashabbuskorlik va faol ishtirok darajasi yetarli emasligini ko'rsatadi. «Tabiiy fanlar» va «Ona tili va adabiyoti» metod birlashmalarida ham ayrim komponentlar bo'yicha past baholar qayd etilgan. Bunday holat jamoa ichidagi muloqot, hamkorlik va mas'uliyatli munosabatning rivojlanmaganligini anglatadi.

Eng yuqori ko'rsatkichlar esa «Chet tili» va «Tarix» fanlari metod birlashmalarida kuzatilgan (umumiy balllar mos ravishda 3,57 va 3,54). Umumiy xulosa sifatida, metod birlashmalar faoliyatida partisipativ boshqaruvni kuchaytirish, ayniqsa «amaliy» va «tabiiy» fanlar kesimida, ta'lim sifati va pedagogik tashabbusni

oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bobning 3-paragrafida o'qituvchilar faoliyati samaradorligi bilan maktab menejerlarining boshqaruv uslubi o'rtasidagi bog'liqlik ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilingan. 2023–2024-o'quv yili yakunida ta'lim sifati yetarli darajada baholanmagan umumiy o'rta maktablarning hududiy taqsimotini o'zida ifodalagan. Ushbu jadvalda 10163 ta maktab orasidan 642 tasi – ya'ni 6,32 foizi sifati past deb baholangan maktablar sirasiga kiritilgan.

2-jadval.

Metod birlashmalar faoliyati samaradorligiga partisipativ boshqaruv uslubining ta'siri natijalari, (Mann-Uitni U-mezoniga ko'ra)

T/r	Ko'rsatkichlar Metod birlashmalar	Boshqaruv salohiyati va rahbarlik sifati	Boshqaruv oriyentatsiyasi va yetakchilik uslublari	Qaror qabul qilish va hujjatlar bilan ishlash	Kognitiv-faoliyat yondashuvi	Faoliyat samaradorligi va o'zini baholash	Umumiy o'rtacha
1.	Amaliy fanlar	3,39	3,41	3,44	3,44	3,59	3,45
2.	Tabiiy fanlar	3,48	3,54	3,53	3,49	3,44	3,50
3.	Ona tili va adabiyoti fani	3,45	3,48	3,51	3,51	3,56	3,50
4.	Aniq fanlar	3,5	3,51	3,53	3,49	3,51	3,51
5.	Boshlang'ich ta'lim fani	3,52	3,52	3,56	3,52	3,45	3,51
6.	Jismoniy tarbiya fani	3,48	3,44	3,50	3,65	3,54	3,52
7.	Rus tili va adabiyoti fani	3,54	3,54	3,50	3,52	3,56	3,53
8.	Tarix fani	3,56	3,56	3,52	3,49	3,56	3,54
9.	Chet tili fanlari	3,60	3,57	3,52	3,61	3,54	3,57

Natijalar respublika maktablaridagi tashkiliy-menejerlik amaliyoti va o'qituvchilar faoliyati samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ijtimoiy-psixologik rakursda o'rganish imkonini beradi.

IPS (ijtimoiy-psixologik so'rovnoma)ning 17-savol doirasida olingan ma'lumotlar respondentlarning 49,5 foizi (138 nafari) Qashqadaryo viloyatida (2023–2024-o'quv yilida Qashqadaryo viloyatida 1225 ta maktabda 664525 nafar o'qituvchi), 40,9 foizi (114 nafari) esa Navoiy viloyatida (2023–2024-o'quv yilida Navoiy viloyatida 366 ta maktabda 187656 nafar o'qituvchi) faoliyat yuritishini ko'rsatmoqda. Bu holat, tadqiqot bazalarini aynan mazkur ikki hududga qaratish ilmiy-metodologik jihatdan asosli ekanligini anglatadi. Chunki Qashqadaryo viloyati yuqori ta'lim sifati muammosi eng ko'p qayd etilgan hudud bo'lsa, Navoiy viloyatida bunday maktablar soni ancha kam (faqat 2,46%), ya'ni nisbatan barqaror ijtimoiy-psixologik muhit shakllangan.

Ikki turli ijtimoiy-psixologik sharoitda faoliyat yuritayotgan maktablarda partisipativ boshqaruv uslubining o'qituvchilar faoliyatiga ta'sirini qiyosiy o'rganish

imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa, muammoli hududlarda qanday omillar pedagogik samaradorlikni pasaytirayotganini, muvaffaqiyatli hududlarda esa qanday ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar ta'lim sifatini ta'minlayotganini aniq ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarining tadqiqot bazalari sifatida tanlanishi, mavjud statistik natijalar va respondentlarning real faoliyat yuritayotgan hududlariga asoslangan bo'lib, boshqaruv uslubining o'qituvchilar samaradorligiga ta'sirini aniqlashda ijtimoiy-psixologik yondashuvning dolzarbligini yoritib beradi.

«Mehnat jamoasining boshqarish uslubini aniqlash» metodikasi asosida olib borilgan tadqiqotda 279 nafar respondent ishtirok etgan bo'lib, ularning yoshi, pedagogik staji va jinsi, shuningdek faoliyat yuritayotgan hududi va muassasa turi asosida statistik tahlil amalga oshirilgan. Natijalarga ko'ra, boshqaruvda kollegial (partisipativ) komponent 6 indikator asosida ustunlik qilgani aniqlangan.

3-jadvalda «Menejerlar qaror qabul qilish usuli» bilan o'qituvchilar faoliyat yuritayotgan hududlar o'rtasidagi munosabatni aniqlash maqsadida χ^2 -mezoni tekshiruvi qo'llanildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, χ^2 qiymati 19,76 ($\chi^2=19,76$) ga teng bo'lib, erkinlik darajasi $df=22$ ni, $p=0,598$ ni tashkil etdi. Bu esa, qabul qilingan $\alpha=0,05$ ahamiyat darajasi bilan solishtirilganda, natijaning statistik jihatdan ahamiyatli emasligini ko'rsatadi hamda H_0 faraz rad etilmaydi

3-javdal.

«Menejerlarning qaror qabul qilish usuli» bilan o'qituvchilar faoliyat yuritayotgan hududlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (χ^2 tahlil natijalari asosida)

T/r	Hududlar nomi	Qashqadaryo viloyati (n=137)	Navoiy viloyati (n=114)	Boshqa hududlar* (n=28)	χ^2	p
	Qaror qabul qilish usuli					
1.	Barcha muhim qarorlar pedagogik jamoa bilan muhokama qilinadi, ammo ba'zi tezkor masalalarni menejerlar mustaqil hal qiladi	94	5	38	19,76	0,598
2.	Ba'zi muhim masalalar maktab menejerlari ishtirokisiz hal qilinadi, ularning vazifalarini boshqa shaxslar bajaradi	90	1	23		
3.	Maktab menejerlari barcha qarorlarni mustaqil qabul qiladi va ular haqida pedagoglarga ma'lum qiladi	18	3	7		

Izoh: Andijon, Xorazm viloyatlari tadqiqotga jalb qilinmagan

Ushbu natija asosida, turli hududlardagi o'qituvchilarning maktab direktor (direktor o'rinbosarlari)lari tomonidan qaror qabul qilish usullariga nisbatan yondashuvlari o'rtasida hududiy jihatdan nazariy va amaliy farq yo'q, degan xulosaga kelish mumkin. Ya'ni, qaror qabul qilish usuli, ayniqsa, «barcha muhim qarorlar pedagogik jamoa bilan muhokama qilinadi, ammo ba'zi tezkor masalalarni menejerlar mustaqil hal qiladi» degan yondashuv, deyarli barcha hududlarda eng ko'p

tanlangan model sifatida namoyon bo'lgan.

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan qaralganda, bu holat maktablar boshqaruvidagi umumiy tendensiyalarni, ya'ni qarorlarni kollektiv muhokama qilishga intilish va ayrim muammolarni menejerlar tomonidan mustaqil hal qilish amaliyotining keng tarqalganligini ko'rsatadi. Bunda hududiy omillarning ta'siri cheklangan bo'lib, menejment madaniyatida yagona va umumqabul qilingan yondashuv hukm surayotganini anglash mumkin.

4-jadvalda tadqiqot natijalariga ko'ra maktab direktor (direktor o'rinbosarlari)larining boshqaruv faoliyati uch asosiy uslub – direktiv (avtoritar), kollegial (partisipativ) va popustitel (liberal) yondashuvlar bo'yicha tahlil qilinib, ularning umumiy tanlovlar soni, o'rtacha baholanish ko'rsatkichi ($\bar{x}$) hamda standart og'ish darajalari (σ) aniqlangan. Kollegial boshqaruv uslubining o'rtacha qiymati 6,03 bilan eng yuqori ko'rsatkichni, direktiv uslub esa 5,41 o'rta ko'rsatkichni, popustitel uslub esa 4,56 quyi ko'rsatkichni namoyon etdi. Boshqaruv uslublari bo'yicha umumiy o'rtacha qiymat 5,33, umumiy standart og'ish esa 49,42 ni tashkil etdi.

4-jadval.

«Mehnat jamoasining boshqarish uslubini aniqlash» metodikasi bo'yicha respondentlar tanlovlarining statistik taqsimoti (n=279)

T/r	Boshqaruv uslublari	Umumiy tanlovlar soni	Minimal tanlovlar soni	Maksimal tanlovlar soni	$\bar{x}$	σ
1.	Direktiv (avtoritar)	1509	13	203	5,41	47,50
2.	Kollegial (partisipativ)	1682	30	220	6,03	47,50
3.	Popustitel (liberal)	1273	8	221	4,56	53,25
Jami		4464	51	644	5,33	49,42

Mazkur ko'rsatkichlar, kollegial boshqaruv elementi pedagogik jamoalarda eng ko'p e'tirof etilgan va ustuvor deb topilganini anglatadi. Bu holat, o'z navbatida, pedagogik jamoalarda qarorlarni birgalikda muhokama qilish, o'qituvchilarning fikrini inobatga olish, mas'uliyat va vakolatni bo'lishish, o'zaro ishonch muhitida faoliyat yuritish kabi partisipativ boshqaruvga xos ijtimoiy-psixologik jihatlarning kuchli namoyon bo'layotganini tasdiqlaydi. Shuningdek, direktiv uslub ham muhim o'rin egallab, maktab rahbarlarining nazorat va intizomga yo'naltirilgan yondashuvlari saqlanib qolayotganini ko'rsatgan. Popustitel (liberal) komponent esa kamroq namoyon bo'lib, bu boshqaruvda nazoratning susayishi va mas'uliyatning bo'linishi bilan bog'liq. Tahlil natijalariga ko'ra, partisipativ boshqaruv uslubining samarali joriy etilishi pedagogik jamoalarda kasbiy faollik, tashabbuskorlik va ishonchli ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Dissertatsiyaning «Partisipativ boshqaruv asosida o'qituvchilarning faoliyat samaradorligini oshirish strategiyalari» deb nomlangan uchinchi bobida umumta'lim muassasalarida partisipativ boshqaruvni joriy etish shartlari, rahbarlik

uslubining psixologik iqlimga ta'siri, o'qituvchilarning kasbiy faolligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar va ularni rag'batlantiruvchi boshqaruv mexanizmlari empirik tadqiqot asosida yoritilgan. Bobda shuningdek, o'qituvchilarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari partisipativ boshqaruvning samarali amal qilishida asosiy shaxsiy resurs sifatida baholanib, diagnostika natijalari hududlar kesimida solishtirilgan.

Bobning 1-paragrafida umumta'lim muassasalarida partisipativ boshqaruv uslubini samarali joriy etish shartlari, ularning ijtimoiy-psixologik mezonlar asosida aniqlanishi va hududlar kesimidagi farqlari statistik tahlil asosida bayon qilingan. Jumladan, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida «sariq» va «qizil» toifadagi maktablarda rahbarlik salohiyati, boshqaruv uslubi, jamoaviy iqlim va psixologik barqarorlik darajalari «Jamoada ishchanlik, ijodiy va axloqiy iqlimni aniqlash» va «Rahbarning boshqaruv salohiyatini ekspress-baholash» (N.P.Fetiskin, V.V.Kozlov, G.M.Manuylovlarning «Rahbarning boshqaruv salohiyatini ekspress-baholash» va «Jamoada ishchanlik, ijodiy va axloqiy iqlimni aniqlash») metodikalari qollanilgan va partisipativ boshqaruvning ijobiy ta'siri samaralari amaliy tasdiqlangan.

5-jadval.

Umumta'lim muassasalari direktorlari, direktor o'rinbosarlari, metod birlashmalar rahbarlarida boshqaruv salohiyati ko'rsatkichining hududlar kesimidagi natijalari, (Mann-Uitni U-mezoniga ko'ra)

T/r	Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
		Navoiy viloyati sariq toifa maktablar (n=114)	Qashqadaryo viloyati qizil toifa maktablar (n=137)		
1.	Boshqaruv salohiyati	8,90	5,88	12151,50	0,000

Izoh: – $p < 0,01$

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Navoiy viloyatidagi sariq toifadagi umumta'lim muassasalari direktor (direktor o'rinbosarlari)lari va metod birlashma rahbarlarining boshqaruv salohiyati o'rtacha 8,90 ballni tashkil etgan bo'lib, bu ularning boshqaruv qobiliyatlari o'rtacha darajada ekanini ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatidagi qizil toifadagi maktablarda esa ushbu ko'rsatkich 5,88 ballni tashkil etib, past darajadagi boshqaruv salohiyatiga ega rahbarlar ustunlik qilayotganini anglatadi. Mann-Uitnining U-mezoni asosidagi statistik tahlil ($U=12151,5$; $p<0,01$) bu ikki hudud o'rtasidagi farqni ishonchli va sezilarli deb baholashga asos yaratadi.

Sariq toifadagi maktablarda rahbarlik salohiyatining yuqoriligi, ularning boshqaruv faoliyatida partisipativ (ishtirokli) yondashuvlardan samarali foydalanayotganini ko'rsatadi. O'qituvchilar va metod birlashma rahbarlari maktabning boshqaruv jarayonlarida faol ishtirok etishadi, qarorlar muhokamasi va qabul qilinishida o'z fikrlarini ochiq bildirishadi hamda jamoaviy hamkorlik va ijtimoiy ishonch muhitini shakllantirishgan. Bunday ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit o'qituvchilar faoliyatining samaradorligini oshirishga, rahbarlik sifatlarining kuchayishiga xizmat qiladi.

6-jadvalda keltirilgan barcha p-qiymatlar ($p=0,0000$) $p<0,001$ mezoniga to'liq javob beradi. Bu esa statistik nuqtai nazardan yuqori darajadagi ishonchlilikni

anglatadi. Ya'ni, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlaridagi jamoaviy iqlim ko'rsatkichlari orasida kuzatilgan tafovutlar tasodifiy emas, balki ishonchli statistik asosga ega, bunday past p-qiyimatlar real farq mavjudligini 99,9% ehtimol bilan tasdiqlaydi.


6-jadval.

Umumta'lim muassasalari direktorlari, direktor o'rinbosarlari, metod birlashmalar rahbarlarida ishchanlik, ijodiy va axloqiy iqlim ta'sirining hududlar kesimidagi natijalari, (Mann-Uitni U-mezoniga ko'ra)

T/r	Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
		Navoiy viloyati sariq toifa maktablar (n=114)	Qashqadaryo viloyati qizil toifa maktablar (n=137)		
1.	Ishchanlik	7,5102	3,0024	15618,0	0,0000
2.	Ijodiy	7,5132	6,0377	15270,0	0,0000
3.	Axloqiy	7,5044	6,0000	15220,5	0,0000

Izoh: – $p < 0,001$

«Jamoada ishchanlik, ijodiy va axloqiy iqlimni aniqlash» metodikasi natijalari tahlili shundan dalolat beradiki, jamoaning ishchanlik darajasi mehnat munosabatlari, mas'uliyat, intizom va vazifalarni samarali bajarish qobiliyati orqali namoyon bo'ladi. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan bu ko'rsatkichlar tashkilot ichidagi operatsional faollik, mas'uliyatni taqsimlash va teng huquqli ishtirok bilan uzviy bog'liq. Partisipativ boshqaruv modeli ana shu hamkorlik muhitini shakllantirishga qaratilgan.



1-rasm. «Jamoada ishchanlik, ijodiy va axloqiy iqlimni aniqlash» metodikasi partisipativ boshqaruv kontekstidagi qiyosiy natijalari (n=251)

1-rasmda Navoiy va Qashqadaryo viloyatlaridagi umumta'lim muassasalarida jamoaviy ishchanlik, ijodiylik va axloqiylik ko'rsatkichlari partisipativ boshqaruv kontekstida taqqoslab tahlil qilingan. Natijalarga ko'ra, Navoiy viloyatidagi «sariq» toifadagi maktablar yuqori ballarni qayd etgan: ishchanlik – 7,51; ijodiylik – 7,54; axloqiylik – 7,52. Bu natijalar jamoada mustahkam hamkorlik, tashabbuskorlik va sog'lom psixologik muhit shakllanganini ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatidagi «qizil» toifadagi muassasalarda esa ko'rsatkichlar mos ravishda ancha past: 3,00;

6,03; 6,00 ballni tashkil qilgan. Bu esa rahbarlikda partisipativ yondashuvning sustligi, ijtimoiy-emotsional muhitdagi barqarorlik yetishmasligini anglatuvchi mezon sifatida talqin qilinadi. Grafik tahlil jamoaviy iqlim shakllanishida boshqaruv uslubining bevosita ta'sirini tasdiqlaydi.

Navoiy viloyatida «mas'uliyatlilik»ning 7,66 ball bilan baholanishi partisipativ boshqaruv muhitida xodimlarda daxldorlik hissi, ichki javobgarlik va erkinlik asosida harakat qilish imkoniyati yaratilganini ko'rsatadi. Bu xodimning o'z ishiga shaxsan javobgar deb qarashini rag'batlantiradi. Qashqadaryoda esa 2,88 ballik past ko'rsatkich rahbarlikda buyruqbozlik va javobgarlikni faqat yuqoriga yuklash kabi avtokratik elementlar mavjudligini anglatadi.

«Rivojlanish (o'sish)» sifati bo'yicha Navoiy viloyati respondentlaridagi 7,58 balli yuqori baho – ularning uzluksiz o'sishga bo'lgan ehtiyoji, yangi kompetensiyalarni rivojlantirish muhiti va rahbar tomonidan imkon yaratilishini ko'rsatadi. Qashqadaryoda (6,14) o'sishga intilish bor, biroq rivojlanish uchun institutsional imkoniyatlar cheklangan bo'lishi mumkin.

Navoiyda «xayrixohlik»ning 7,57 ball bo'lishi jamoada insoniy munosabatlar, mehr-oqibat va qo'llab-quvvatlash asosidagi muloqot rivojlanganini ko'rsatadi. Bu partisipativ boshqaruvda emotsional xavfsizlik yaratilganini ko'rsatadi. Qashqadaryoda 5,98 ball yaqin, ammo munosabatlarda hali ham formallik va ehtiyotkorlik ustun ekanligidan dalolat bermoqda.

Navoiyda «rostgo'ylik» shkalasi bo'yicha respondentlar baholanishi 7,62 ball bo'lib, ochiqlik tamoyili, qarorlarni muhokama qilish imkoniyati va ishonchli muloqot muhiti mavjudligini anglatadi. Qashqadaryodagi sinaluvchilar bu borada 5,96 ball to'plashib, samarali muloqot mavjudligini ko'rsatsa-da, lekin o'z fikrini ochiq aytishdagi psixologik to'siqlar hali hanuz saqlanmoqda.

«Do'stona munosabat»lar shkalasi Navoiyda 7,35 ball bilan, jamoaviy birdamlik, bir-birini eshitish madaniyati, va empatiya asosidagi muloqot shakllanganini anglatadi. Qashqadaryolik sinaluvchilarning 6,18 balli ijtimoiy muvofiqlik mavjudligidan dalolat bersa-da, lekin o'zaro bog'liqlik yetarli darajada emasligini yaqqol namoyon qilmoqda.

Navoiyda 7,43 ball «ijtimoiy xavfsizlik»ning ta'minlanganini, ya'ni insoniy munosabatlar, huquqiy muhofaza, va mehnat sharoitlariga e'tibor yuqori ekanini bildiradi. Qashqadaryodagi 5,95 ball, nisbatan past baholanish – muammolarga rasmiy yondashuv saqlanib qolayotganligini, shaxsiy ehtiyojlarga yetarli e'tibor berilmayo'tganligini ko'rsatib turibdi.

